

**FOYDA YOKI ZARARLAR TO'G'RISIDAGI HISOBOTNING AXBOROT MANBAI  
SIFATIDAGI AHAMIYATI**

**Yusupova Farizabonu Zarifovna** - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti i.f.f.d.(PhD)., Katta o'qituvchi

*Email:* [yusupovaf.95@gmail.com](mailto:yusupovaf.95@gmail.com)

*ORCID:* <https://orcid.org/0000-0001-7431-764X?lang=en>

**UO'K: 657.1:335.72-048.32(575.1)**

**Annotatsiya;** Ushbu maqola korxonada moliyaviy hisobotning muhim qismi bo'lgan foyda va zarar hisobotining axborot ahamiyatini ilmiy tahlil qiladi. Maqolada foyda va zarar hisobotining nazariy mohiyati, uning foydalanuvchilari uchun axborot qiymati, hamda boshqaruv va investitsiya qarorlaridagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, xalqaro standartlar (IFRS) doirasida foyda va zarar hisobotining shakllanishi va taqdim etilishining axborot samaradorligi muhokama etiladi.

**Kalit so'zlar:** foyda va zarar hisoboti, moliyaviy hisobot, axborot ahamiyati, IFRS, moliyaviy tahlil.

**ВАЖНОСТЬ ОТЧЕТА О ПРИБЫЛИ И УБЫТКАХ КАК ИСТОЧНИКА  
ИНФОРМАЦИИ**

**Юсупова Фаризабону Зарифовна** - Самаркандский институт экономики и сервиса, (PhD)., старший преподаватель.

*Email:* [yusupovaf.95@gmail.com](mailto:yusupovaf.95@gmail.com)

*ORCID:* <https://orcid.org/0000-0001-7431-764X?lang=en>

**UO'K: 657.1:335.72-048.32(575.1)**

**Аннотация;** В данной статье представлен научный анализ информационной значимости отчета о прибылях и убытках, являющегося важной частью финансовой отчетности предприятия. В статье рассматривается теоретическая сущность отчета о прибылях и убытках, его информационная ценность для пользователей и его роль в управленческих и инвестиционных решениях. Также обсуждается информационная эффективность формирования и представления отчета о прибылях и убытках в рамках международных стандартов (МСФО).

**Ключевые слова:** отчет о прибылях и убытках, финансовая отчетность, информационная значимость, МСФО, финансовый анализ.

**Yusupova Farizabonu Zarifovna** - Samarkand Institute of Economics and Service, (PhD)., Senior Lecturer.

*Email:* [yusupovaf.95@gmail.com](mailto:yusupovaf.95@gmail.com)

*ORCID:* <https://orcid.org/0000-0001-7431-764X?lang=en>

**UO‘K: 657.1:335.72-048.32(575.1)**

**Abstract:** This article presents a scientific analysis of the informational significance of the income statement, a key component of a company's financial statements. It examines the theoretical nature of the income statement, its informational value to users, and its role in management and investment decisions. It also discusses the informational effectiveness of preparing and presenting the income statement in accordance with international financial reporting standards (IFRS).

**Key words:** income statement, financial reporting, informational significance, IFRS, financial analysis.

**Kirish.** Moliyaviy hisobot korxonada faoliyatining moliyaviy natijalarini aks ettiruvchi eng muhim axborot manbalaridan biridir. Foyda va zarar hisoboti esa bu tizimning markaziy bo‘limi bo‘lib, korxonaning muayyan davrdagi daromad va xarajatlarini, shuningdek sof foyda yoki zarar ko‘rsatkichlarini yoritadi. Bu hisobot turli foydalanuvchilarga — investorlar, kreditorlar, boshqaruv organlari va boshqa manfaatdor tomonlarga qaror qabul qilishda muhim axborot beradi.

Moliyaviy hisobotning axborot qiymati korxonada faoliyati to‘g‘risida aniq, ishonchli va taqqoslanadigan ma‘lumotlarni taqdim etishga bog‘liq. Mazkur maqolada foyda va zarar hisobotining axborot ahamiyati nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil etiladi.

Foyda va zarar hisoboti — bu korxonaning ma‘lum bir davrdagi daromadlari, xarajatlari va natijaviy moliyaviy ko‘rsatkichlarini to‘liq aks ettiruvchi moliyaviy hisobot turi hisoblanadi. Hisobot foydalanuvchilarga korxonaning rentabelligi, daromad keltirish qobiliyati va moliyaviy barqarorligi haqida axborot beradi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari IFRS 1–15 bo‘yicha daromad va xarajatlarni tan olish, o‘lchash va taqdim etish tamoyillari belgilangan. Xususan, IFRS 15 «Daromadlar» standarti daromadlarni tan olish bo‘yicha yagona modelni belgilaydi, bu esa foyda va zarar hisobotining ishonchliligini oshiradi. Moliyaviy axborotning *ahamiyati* — bu foydalanuvchining qaror qabul qilishiga ta‘sir etuvchi ma‘lumotlar sifatidir; ya‘ni axborot korxonada kelajagi bo‘yicha taxminlar va qarorlar sifatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.


Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy hisobot korxonada faoliyati to‘g‘risidagi eng muhim va asosiy axborot manbai hisoblanadi. U orqali korxonaning moliyaviy holati, xo‘jalik faoliyati natijalari hamda pul oqimlari to‘g‘risida umumlashtirilgan va tizimli ma‘lumotlar shakllantiriladi. Moliyaviy hisobotning asosiy maqsadi manfaatdor foydalanuvchilarni ishonchli, dolzarb va taqqoslanadigan moliyaviy axborot bilan ta‘minlashdan iboratdir. Aynan shu axborot asosida investitsiya, kredit, boshqaruv va nazoratga oid iqtisodiy qarorlar qabul qilinadi.

Moliyaviy hisobot tarkibida foyda va zarar hisoboti alohida o‘rin egallaydi. Ushbu hisobot korxonaning ma‘lum bir hisobot davridagi moliyaviy natijalarini, ya’ni daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi farqni aks ettiradi. Foyda va zarar hisoboti korxonaga faoliyatining samaradorligini baholash imkonini berib, uning bozor sharoitidagi raqobatbardoshligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur hisobot orqali korxonaning daromad keltirish qobiliyati, xarajatlarni boshqarish darajasi hamda umumiy moliyaviy natijalari baholanadi.

Foyda va zarar hisoboti investorlarga, kreditorlarga, davlat organlariga hamda korxonaga boshqaruv xodimlariga iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim axborot taqdim etadi. Investorlar ushbu hisobot asosida korxonaga kiritilgan kapitalning rentabelligini, foyda olish darajasini va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari baholaydilar. Kreditorlar esa foyda va zarar hisobotidagi ko‘rsatkichlar orqali korxonaning majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish qobiliyatini, moliyaviy barqarorligini va kredit risklarini aniqlaydilar. Davlat organlari uchun ushbu hisobot soliq bazasini shakllantirish, moliyaviy intizomni nazorat qilish va iqtisodiy tahlilni amalga oshirishda axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Korxonaga boshqaruvi esa foyda va zarar hisobotidan strategik rejalashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va foydani oshirish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanadi.

Foyda va zarar hisobotining iqtisodiy mohiyati shundaki, u korxonaning daromadlari, xarajatlari hamda ularning yakuniy natijasi — sof foyda yoki zarar miqdorini umumlashtirilgan holda aks ettiradi. Ushbu hisobot orqali korxonaning rentabellik darajasi, daromad keltirish salohiyati va xo‘jalik faoliyatining umumiy samaradorligi baholanadi. Hisobotda keltirilgan axborot moliyaviy natijalarning shakllanish jarayonini ochib berib, daromad va xarajatlarning tarkibi hamda ularning o‘zgarish dinamikasini tahlil qilish imkonini yaratadi. Natijada, korxonaning moliyaviy barqarorligi va rivojlanish istiqbollari bo‘yicha asoslangan xulosalar chiqarish mumkin bo‘ladi.

Foyda va zarar hisobotining foydalanuvchilar uchun axborot ahamiyati



**1-rasm. Foyda va zarar hisobotining turli foydalanuvchilar uchun axborot ahamiyati aks ettirilgan.**

Rasmda foyda va zarar hisobotining turli foydalanuvchilar uchun axborot ahamiyati aks ettirilgan.

Diagramma natijalariga ko'ra, investorlar va korxonalar boshqaruvi uchun ushbu hisobot eng yuqori axborot qiymatiga ega bo'lib, bu ularning investitsiya va strategik qarorlar qabul qilishida moliyaviy natijalarga bo'lgan yuqori ehtiyoji bilan izohlanadi. Kreditorlar uchun foyda va zarar hisoboti muhim axborot manbai bo'lsa-da, ularning qarorlarida balans va pul oqimlari hisobotlari ham sezilarli ahamiyatga ega. Davlat organlari uchun esa ushbu hisobot asosan soliq bazasini shakllantirish va moliyaviy nazoratni amalga oshirishda xizmat qiladi.

Foyda va zarar hisobotining axborot ahamiyati, avvalo, uning turli foydalanuvchilarga ko'rsatadigan ta'siri bilan belgilanadi. Investorlar uchun ushbu hisobot kapital qo'yilmalar samaradorligini baholash va investitsiya qarorlarini qabul qilishda asosiy axborot manbai hisoblanadi. Kreditorlar uchun foyda va zarar hisoboti qarzlarni qaytarish imkoniyatini aniqlash, moliyaviy risklarni baholash hamda kredit shartlarini belgilashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Boshqaruv uchun esa ushbu hisobot strategik rejalashtirish, xarajatlarni boshqarish, foyda hajmini oshirish va korxonalar faoliyati samaradorligini ta'minlashga qaratilgan qarorlar qabul qilishda muhim instrument hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning halqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida

"Aktsiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisoboti MHXS asosida e'lon qilinishini ta'minlash choralarini ko'rish"[1] vazifasi yuklatilgan. Bu vazifalar o'z navbatida moliyaviy hisobot, jumladan moliyaviy natijalarga doir hisobot formatlarini xalqaro standartlarga to'liq muvofiqlashtirishni taqozo etadi. Shu bois, mazkur maqola dolzarb mavzuga bag'ishlangan.

Shu bilan birga, foyda va zarar hisobotining amaliy ahamiyati unda keltirilgan axborotning ishonchliligi, to'liqligi va haqqoniyligiga bevosita bog'liqdir. Agar hisobot ma'lumotlari real iqtisodiy jarayonlarni to'liq aks ettirsa, u foydalanuvchilar uchun yuqori axborot qiymatiga ega bo'ladi va qabul qilinayotgan qarorlarning samaradorligini oshiradi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot shaklini takomillashtirish, uni MHXSlari talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan:

Z.T.Eshbekova "Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etish maqsadida faoliyat turlarini chegaralash yo'li bilan ko'rsatilishi mumkin. Masalan, xo'jalik yurituvchi sub'ektning odatdagi faoliyati davomida va faoliyat jarayonidagi favqulodda holatlarda yuzaga keladigan daromadlar va xarajatlarning moddalari o'rtasidagi chegara umumiy qabul qilingan amaliyot hisoblanadi" [2] deb tavsiflaydi.

PricewaterhouseCoopers xalqaro auditorlik tashkiloti tomonidan "foyda yoki zararlar hamda boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi" [3] hisobot formati taklif etilganligi ham diqqatga sazovordir. Ushbu hisobot formati MHXSlari talablarida ishlab chiqilgan. Unda kompaniyaning moliyaviy faoliyatiga doir axborotlar yetarli darajada tizimlashtirilgan, qaysiki bu jihatlari hisobotning axborot qamrovini kengaytirishga hamda hisobotning shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

S.N.Tashnazarov moliyaviy hisobot masalalariga bag'ishlangan monografiyasida "Foyda yoki zararlar hamda boshqa to'plam daromadlar to'g'risidagi hisobot"[5]ning shakli tavsiya etilgan. Hisobot shaklida muallif tomonidan sof daromadni aniqlash tartibi, operatsion foyda, asosiy

faoliyatdan olingan foyda (zararlar), odatdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar kabi satrlarni kiritish taklif etilgan. Albatta ushbu takliflar hisobot formatini MHXSlariga muvofiqlashtirishga xizmat qilgan.

Ushbu o'rganishlar natijasida xulosa qilish mumkinki, moliyaviy hisobotning tarkibiy qismi bo'lgan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot yagona formati yaratilgan emas, xalqaro kompaniyalar tomonidan uni takomillashtirish, axborot foydalanuvchilarning manfaatlariga uyg'unlashtirish, oqilona va strategik qarorlar qabul qilinishiga yo'naltirish, integratsiyalashgan hisobotlarni taqdim etishga intilmoqda.

Natijalar. Moliyaviy natijalarning asosiy ko'rsatkichlari bo'lib daromad va xarajatlar ham yakuniy moliyaviy natija foyda bo'lib hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlarga doir hisobot shakllarini ishlab chiqishda moliyaviy hisobotning kontseptual qoidalariga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) foyda va zarar hisobotining axborot sifatini oshirishga qaratilgan yagona va tizimli yondashuvni belgilaydi. Xususan, IAS 1 "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish" standarti foyda va zarar hisobotining tuzilmasi, mazmuni va axborot oshkoraligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur standart hisobotda daromadlar va xarajatlarning aniq tasniflanishini hamda ularning alohida ochib berilishini talab etadi. IFRS 15 "Daromadlar" standarti esa daromadlarni tan olish va hisobga olishning aniq qoidalarini belgilab, moliyaviy natijalar to'g'risidagi axborotning ishonchliligini oshiradi. Natijada foyda va zarar hisobotida keltirilgan ma'lumotlarning taqqoslanuvchanligi va haqqoniyligi ta'minlanib, moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun yanada katta axborot ahamiyatiga ega bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 24.02.2020 йилдаги ПҚ-4611-сон <https://lex.uz/docs/4746047>
2. Эшбекова З.Т. Молиявий натижаларини ҳисобга олиш ва назорат қилишни такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2021 yil. 80-81-б.
3. ©2020 PwC. Все права защищены. Этот материал подготовлен Академией PwC для экзаменов АССА ДипИФР в 2020 году. 0316-0318-б.
4. Obidov Rakhmonali Rasulovich. Хўжалик субъектларида даромад ва харажатларни шакилланиши ва бухгалтерия ҳисобида тан олишни такомиллаштириш, International // Journal of Economics and Accounting Review Issue 1 June 2023. 12-б.
5. С.Н. Ташназаров. Молиявий ҳисоботнинг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш (МХХС ва илғор тажрибалар асосида). Монография. 2018 й. 151-152-б. <https://www.amazon.com/dp/6138240502>